

SOME METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR FORMING PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE RAILWAY EMPLOYEES

M.D. Kurbanova

Independent Researcher Tashkent International University of Kimyo

***Abstract.** This article discusses the problem of training highly qualified personnel in the system of continuous education, the concept of competence, the essence and content of forming professional competence in future railway employees, as well as the structural components of professional competence.*

***Keywords:** competence, professional competence, continuous education, professional training.*

BO‘LAJAK TEMIR YO‘L XODIMLARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM METODOLOGIK ASOSLARI

M.D.Kurbanova

Toshkent xalqaro Kimyo universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada uzluksiz ta‘lim tizimida yetuk kadrlar tayyorlash muammosi, kompetentlik tushunchasi, bo‘lajak temir yo‘l xodimlarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning mazmun-mohiyati, kasbiy kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, uzluksiz ta‘lim, kasbiy tayyorgarlik.

Bugungi globallashuv va tezkor taraqqiyot sharoitida ta‘lim tizimini rivojlantirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash har qanday davlatning ustuvor vazifasiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish, uni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va malakali mutaxassislar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

“Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi”da [1] ta‘lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, uning sifati va samaradorligini oshirish, ta‘lim jarayonini raqamlashtirish hamda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Strategiyada inson kapitalini rivojlantirish mamlakat taraqqiyotining asosiy omili ekani alohida ta‘kidlanadi.

Zamonaviy bilim va kasbiy kompetensiyalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, innovatsion yondashuvga tayyor mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Shu bois ta‘lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilar salohiyatini oshirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ishda ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, ularning mazmun-mohiyati hamda amaliy ahamiyati yoritiladi.

Temir yo‘l transporti mavjud bo‘lgandan beri va faoliyati davomida O‘zbekiston iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Uning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish uchun o‘z vaqtida yuk va yo‘lovchi tashishni ta‘minlash hisoblanadi. Bu boradagi ishlar turli ko‘rinishlarda amalga oshirilmoqda va O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l tarmog‘ini o‘tkazish va tashish imkoniyatlarini maksimal xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan. Har qanday mehnat faoliyatida bo‘lgani kabi temir yo‘l sohasida ham professional ta‘lim va kasbiy yetuklik masalasi dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning kundan kunga o‘zgarib borayotgan ijtimoiy iqtisodiy jabhalari bo‘lajak temir yo‘l xodimlariga yangidan-yangi talablar qo‘ymoqda. Bunday vaziyatda talabgir mutaxassis bo‘lish uchun kasbiy kompetentlik darajasining ahamiyati nihoyatda beqiyos.

Nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, kompetentlik va kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muammosi ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida turli yo'nalishlarda o'rganilgan.

Kompetentlik (lot. competens - mos, munosib, qobiliyatli, bilimli) - ma'lum bir sohada samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim, tajriba va ko'nikmalarning mavjudligi.

Kompetentlik - individning faoliyatga qo'shilishi bilan real, hayotiy harakatlarni bajarish qobiliyati va malakaviy xususiyatidir; har qanday faoliyatning ikki jihati bor - zahira va samara, kompetentlikni rivojlantirish zahiraning samaraga aylanishini kafolatlaydi.

Kompetentlik - boxabarlik bilan muammolarni hal qilishga tayyorlik; mazmunli (bilim) va jarayonli (ko'nikma) kabi qismlarini o'z ichiga oladi va muammoning mohiyati anglash va uni hal qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi; bilimlarni doimiy ravishda yangilab turish, ushbu bilimlarni muayyan sharoitlarda muvaffaqiyatli qo'llash uchun yangi ma'lumotlarga ega bo'lish, ya'ni operatsion va mobil ma'lumotlarga ega bo'lishni taqazo etadi

Kompetentlik - aniq qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan shaxsiy faoliyat tajribasi va bilimlariga ya'ni kompetensiyasiga ega bo'lish [2].

Shaxsning oliy komponentlaridan biri kasbiy kompetentlikdir. Kasbiy kompetentlik deganda mutaxassisning qaror qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan ma'lum faoliyat turi bilan shug'ullanishiga imkon yaratadigan bilim, ko'nikma, malaka, tajribani o'zida aks ettiradigan shaxsiy va kasbiy sifatlarining integral xarakteristikasi nazarda tutiladi.

Kasbiy kompetentlik shaxsning individual xususiyatlari bilan uyg'un holda shakllanadi. Globalizatsiya davrida har bir alohida mutaxassis o'zgarayotgan shart-sharoitlarga turlicha moslashadi, o'zining kasbiy faoliyati bilan bog'liq masalalar

yuzasidan mustaqil qaror qabul qiladi. Bugungi kunda faoliyat sohasidagi o'zgarishlarga moslashish, o'z bilim, ko'nikma, malakarini safarbar etish, turli noxush faktorlarga qarshi tura olish mutaxassis faoliyatining markaziy muammolaridan biri hisoblanadi.

Temir yo'l sohasining bo'lajak mutaxassislariga ish beruvchi, mehnat bozori va normativ huquqiy hujjatlar qo'yadigan talablarni o'rganib chiqqan holda, ushbu tarmoqda samarali faoliyat olib borish uchun zaruriy bo'lgan umumiy va maxsus kompetensiyalar kompleksini ishlab chiqdik.

Umumiy kompetensiyalarga quyidagilarni kiritdik:

Instrumental kompetensiyalar: fikr va g'oyalarni tushunish va ulardan foydalanish bilan bog'liq kognitiv qobiliyatlar; metodologik qobiliyatlar, atrof-muhitni tushunish va boshqarish qobiliyati, vaqtni to'g'ri tashkil etish, ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish, qaror qabul qilish va muammoni yechish qobiliyati; kompyuter savodxonligi va axboriy boshqarish qobiliyati; lingvistik ko'nikmalar, kommunikativ kompetensiyalar;

Shaxslararo munosabat kompetensiyasi: hissiyot va munosabatni izhor qilish ko'nikmasi bilan bog'liq individual qobiliyatlar; o'z-o'zini tanqid qilish qobiliyati va tanqidiy tafakkur; hamkorlik va ijtimoiy o'zaro faoliyat jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy malakalar; guruhda ishlash ko'nikmasi, ijtimoiy va etik majburiyatlarni qabul qilish va bajarish.

Tizimli kompetensiyalar: tushunchalar, munosabat va bilimlarning o'zaro aloqasini anglash, yaxlit tizimning qismlari bir-biri bilan qanday uyg'unlashishini idrok etish va har bir komponentning tizimdagi o'rnini baholash, shuningdek, tizimni mukammallashtirish maqsadida unga o'zgartirishlar kiritishni rejalashtirish va yangi tizimlar qurish qobiliyati.

Maxsus (kasbiy) kompetensiyalar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Motivatsion va shaxsiy-qadriyatli (tanlangan kasbiy faoliyat sohasiga anglangan va ijobiy munosabat, shaxsiy va kasbiy nuqtai-nazardan takomillashishga doimiy intilish,

intellectual potensialini rivojlantirib borish, kasbiy muammolarni hal etishga ijodiy yondashuv qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, faoliyatning texnik turlarini boshqarishga hamda ularning samaradorligini ta'minlashga tayyorlik);

Ishlab chiqarish va texnologik (ishlab chiqarish va texnologik jarayon bilan bog'liq ko'nikma va malakalar); Tashkiliy-boshqaruv (foydalanuvchilar va mijozlar, ijrochilar jamoasi bilan ishlashni tashkil etish, ishlab chiqarish ishlarini rejalashtirish va tashkil etish, nostandart vaziyatlarda ishlarni tashkil etishning optimal variantlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash jarayonida qatnashish, ishlab chiqarish maydonida mehnat faoliyatini tashkil etish);

Loyihaviy-texnologik (mutaxassis faoliyati bilan bog'liq mehnat jarayonini loyihalashtirish va tashkil etish) [3].

Afsuski, ta'lim muassasalarida bugungi kunda ham ta'limni tashkil etishning an'anaviy shakllari yetakchilik qilmoqda. Natijada hali-hanuz talaba uchun asosiy axborot manbai o'qituvchi bo'lib kelmoqda. Xatto talabada kasbiy mobillikni shakllantirishga, kasbiy tajribani doimiy ravishda yangilib borishga qaratilgan innovatsion texnologiyalardan ham an'anaviy ta'lim konsepsiyasi doirasida foydalanib kelinmoqda [4]. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonini mukammallashtirish, individuallashtirish, ular uchun lokal-modulli texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish XXI asrning ta'lim sohasi oldiga qo'ygan qat'iy talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. Ильина М.В. Реализация компетентностного подхода в работе с учебным текстом (из опыта преподавания курса «История западной России в основной



школе) // Исследования Балтийского региона. Вестник Института Балтийского региона РГУ им. И. Канта. – 2010. - №1. – С. 149-156.

3. Брызгалова С.И., Ильина М.В., Ротенкова Т.Н. Педагогические условия формирования ключевых компетенций учащихся основной школы: Монография – Калининград: БФУ им. И.Канта, 2011. – 176 с.

4. Сергеев А.Г. Компетентность и компетенции: монография / А.Г. Сергеев; Владим. гос. ун-т. – Владимир: Изд-во Владим. гос. ун-та, 2010. – 107 с.

.